

MIRZO ULUG'BEK DAVRIDA SAMARQAND SAVDO MARKAZI**Matmuratova Nilufar Zaxid qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 232-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Ulug‘bek davrida Samarkand shahrining savdo markazi sifatida tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritadi. Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarkand Buyuk ipak yo‘lining asosiy tugunlaridan biri bo‘lib, savdo-sotiqning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Maqolada Shahar iqtisodiy hayotining va savdo infratuzilmasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Ulug‘bekning savdo va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ro‘li va hozirgi kunda Samarkandning tijoratni qulaylashtiruvchi “Erkin iqtisodiy zona” ga aylanishi haqidagi muhim masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Savdo markazi, xalqaro savdo, Buyuk ipak yo‘li, savdogar, observatoriya, ichki savdo, hunarmandchilik.

Kirish

O‘zbekiston tarixi, uning madaniyati va iqtisodiy hayoti ko‘plab buyuk shaxslar va davrlar bilan bog‘liq. Ulug‘bek, Amir Temuring nabirasi, o‘zining ilm-fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi bilan tanilgan. Uning hukmronligi davrida Samarkand nafaqat ilm-fan, balki savdo iqtisodiy faoliyat markaziga ham aylangan. Ulug‘bek davrida Samarkandning savdo markaziga ham aylangan. Ulug‘bek - buyuk astronom, olim va davlat arbobi bo‘lib, Amir Temuring nabirasi sifatida tarix sahnasida muhim o‘rin egallagan. U 1447-yilda Samarkandda hukumronlik qila boshladi va o‘z vaqtida ilm-fanva madaniyatni rivojlanishiga katta e’tibor qaratdi. Ulug‘bekning eng muhim yutuqlarida biri Samarkandda astronomik observatoriya tashkil etishidir. Bu observatoriya nafaqat O‘zbekiston, balki butun musulmon olamida ilm-fan rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Ko‘hna va hamisha navqiron Samarkand shahri betakror sharqona qiyofasi, boy tarixi, har qanday odamni hayratga soladigan noyob obidalari bilan sayyoramizning turli o‘lkalarida afsonaviy shahar sifatida mashhur bo‘ldi, Rim bilan bir qatorda turadigan “abadiy shahar” degan nom bilan Sharq gavhariga, bugun jahon ahlining albatta kelib ko‘rishi shart bo‘lgan 50 ta shaharning biriga aylandi^[1]

Natija va muhokamalar:

Samarkand qadimdan savdo yo‘llarining kesishgan nuqtasida joylashgan. Buyuk Ipak yo‘li Samarkand orqali o‘tgan va bu shaharni savdo markaziga aylantirgan. Ulug‘bek davrida Samarkandda savdo faoliyati yanada rivojlandi. Bu davrda shahar ichki va tashqi savdo aloqalarini mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlarga ega edi. Samarkandning strategik joylashuvi uni ko‘plab savdo yo‘llarining kesishgan nuqtasiga aylantirdi. Buyuk Ipak yo‘li Xitoydan boshlab, O‘rta Osiyo orqali Yevropaga borib yetadigan muhim savdo yo‘lidir. Bu yo‘l orqali ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar va boshqa ko‘plab mahsulotlar olib o‘tilgan. Ulug‘bek davrida Samarkand bu savdo yo‘lida muhim markaz bo‘lib, ko‘plab savdogarlar va sayyoohlar shu yerda to‘planardi. Ulug‘bek davrida Samarkandda savdo faoliyati juda rivojlangan. Shahar ichida ko‘plab bozorlar, do‘konlar va savdo joylari paydo bo‘ldi. Mahalliy aholi va savdogarlar turli xil mahsulotlar, jumladan, ipak, oziq-ovqat mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlarini savdoga chiqarar edi. Samarkandning savdo faoliyati nafaqat mahalliy aholi uchun,

balki qo'shni mamlakatlardan kelgan savdogarlar uchun ham juda foydali bo'lgan. Samarqandda savdo faolligi madaniy aloqalarning rivojlanishiga ham olib keldi. Savdogarlar orasida turli millat va din vakillari mavjud edi. Bu esa madaniyatlararo almashinuvni rag'batlantirdi. Musiqiy asarlar, san'at asarlari va ilmiy bilimlar Samarqand orqali tarqaldi. Ulug'bek davrida shahar ilm-fan va madaniyat markazi sifatida tanildi.

Ulug'bek davrida Samarqand iqtisodiy hayoti turli sohalarda rivojlandi. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo samarali faoliyat yuritdi. Savdo aloqalari Ulug'bek davrida Samarqand nafaqat ichki savdoda, balki xalqaro savdoda ham faol ishtirok etdi. Ko'plab mamlakatlardan savdogarlar kelib, o'z mahsulotlarini taklif etishardi. Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlardan kelgan savdogarlar Samarqandda o'z mahsulotlarini sotar, shu bilan birga mahalliy mahsulotlarni sotib olishardi. Samarqand xalqaro savdoning muhim markaziga aylanadi. Bu yerda turli millat vakillari bir-biri bilan muloqat qilishar va o'zaro savdo munosabatlarini rivojlantirishardi. Xalqaro savdo orqali turli xil madaniyatlar bir-biriga yaqinlashdi va bu jarayon Samarqandni madaniy markarga aylantirdi. Ulug'bek davrida Samarqand nafaqat ilm-fan va madaniyat mazkazi sifatida tanilgan, balki muhim savdo markazi ham bo'lgan. Shahar strategik joylashuvi, rivojlangan iqtisodiy hayoti va madaniy aloqalari bilan ajralib turadi. Ulug'bekning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi va savdoni rag'batlantirishi Samarqandni O'zbekiston tarixi davomida muhim o'rinn tutuvchi shahar sifatida tanitdi. Samarqand nafaqat tarixiy shahar, balki dunyo madaniyati tarixidagi muhim markazlardan biridir.

Samarqandning erkin iqtisodiy zonaga aylanishi, viloyatning iqtisodiy rivojlanishini va investitsiyalarni jalb qilishni maqsad qilgan muhim tashabbusdir.

Samarqandning erkin iqtisodiy zonaga aylanishi viloyatning iqtisodiy barqarorligini oshirishga, yangi ish o'rnlari yaratishga va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon shaharni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash bilan birga, uning global miqyosdagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik: Investitsiya loyihibarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan imtiyozli kreditlar jalb qilish rejalashtirilmoqda

Xorijiy investorlar bilan aloqalar: Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari orqali xorijiy investorlarni jalb qilish uchun yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar doimiy ravishda targ'ib etiladi^[2]

Ushbu rejalarining amalga oshirilishi Samarqand viloyatining iqtisodiy barqarorligini oshirishga, yangi ish o'rnlari yaratishga va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi

Xulosa

Ulug'bek davrida Samarqand xalqaro savdo markazi sifatida rivojlanib, Osiyo va Yevropa o'rtaasiagi muhim savdo yo'llarining kesishgan nuqtasiga aylangan. Samarqandning o'ziga xos geografik joylashuvi va savdo uchun yaratilgan qulay sharoitlar shaharning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlagan. Bu davrda bozorlarda turli mamlakatlardan kelgan mahsulotlar va hunarmandchilik buyumlari keng tarqalgan bo'lib, savdo-sotiq madaniyatlar o'rtaasiada almashinuv va bog'lanishni kuchaytirgan. Ulug'bekning samarali boshqaruvi, savdo uchun

yaratilgan sharoitlar va yangi infratuzilmalar savdoni rivojlantirib, Samarqandni kuchli iqtisodiy markaz sifatida tanitgan. Uning tashabbusi bilan barpo etilgan karvonsaroylar, madrasalar va boshqa savdo inshootlar chet ellik savdogarlarning Samarqandga jalb qilinishiga katta hissa qo'shgan. Shu sababli, Ulug'bek davri Samarqand tarixida savdo va iqtisodiyot sohasida eng muvaffaqiyatli davrlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Samarqand bugungi kunda nafaqat tarixiy yodgorliklar bilan, balki zamonaviy infratuzilma bilan ham ajralib turadi. Shahar iqtisodiy jihatdan rivojlanmoqda, yangi mehmonxonalar, restoranlar va savdo markazlari ochilmoqda. Samarqand o'zining boy tarixi va madaniy merosini saqlab qolish bilan birga, zamonaviy dunyo bilan ham integratsiyalashmoqda.

Samarqandning zamonaviy dunyo bilan integratsiyalashuvi turli sohalarda o'z ifodasini topmoqda. Bu jarayon shaharni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ekologik jihatdan ham rivojlantirishga qaratilgan. Shahar O'zbekistonning iqtisodiy markazlaridan biri sifatida, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda faoliyat yuritmoqda. Jumladan, "Samarqand avtomobil zavodi" va boshqa yirik qo'shma korxonalar orqali xalqaro iqtisodiy aloqalar kengaymoqda. Bu esa shahar iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Samarqand, tarixan, Sharq va G'arb madaniylari o'rtaida ko'prik vazifasini o'taydi. Bugungi kunda shahar, turizm va madaniyat sohasida global hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda. Shahar ko'plab xalqaro tadbirlar va sammitlarga mezbonlik qilmoqda. Bu tadbirlar Samarqandning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga juda katta xizmat qiladi. Umuman olganda, Samarqand hozirgi dunyo bilan uyg'unlashish jarayonida iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda muhim qadamlar qo'yemoqda. Bu esa shaharning global miyosuda raqobatbardoshligini oshiradi va uning tarixiy merosini saqlab qolishga yordam beradi.

Foydalilanilgan manbalar:

1. [1]<https://www.silkroad-samarkand.com/uz/resort/discover-samarkand/>
2. [2] <https://yuz.uz/uz/news/urgut-erkin-iqtisodiy-zonasi>
3. "Mirzo Ulug'bek" . Maqsud Shayxzoda
4. <https://elibrary.sammu.uz/uploads/books/>